



# IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



**VOL.3 № 4**

**2026**

## **BUXORO VA XORAZM XALQ SOVET RESPUBLIKALARI BUDJETINING SHAKLLANISHI VA UNDAGI O'ZGARISHLAR**

**Iriskulov Bekzod Johongirovich**

Samarqand davlat pedagogika instituti, o'qituvchi

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada Buxoro va Xorazm Xalq Sovet Respublikalari budjetining shakllanish manbalar asosida tahlil qilingan. Respublikalar budjetining shakllanishida soliqlarning o'ri, ularning turlari va boj to'lovlari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, O'rta Osiyo Iqtisodiy Kengashi umumiy budjetning rejasini ishlab chiqilganligi, 1924-yil 9-fevraldagi BXSRda aksiz to'g'risidagi Nizomning joriy etilishi manbalar asosida yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Moliya vazirligi, O'rta Osiyo Iqtisodiy Kengashi, Patent yig'imi stavkalari, aksiz solig'i, Savdo guvohnomalari, Budjet daromadlari.

## **ФОРМИРОВАНИЕ БЮДЖЕТА БУХАРСКОЙ И ХОРЕЗМСКОЙ НАРОДНОЙ РЕСПУБЛИКИ СОВЕТСКОГО СОЮЗА**

**Ирискулов Бекзод Жахонгирович**

Самаркандский государственный педагогический институт, преподаватель

### **Аннотация**

Данные о состоянии дел в XIX веке анализируют процесс формирования бюджета Бухарской и Хорезмской Народной Республики Советского Союза. Приводящее правительство Швеции играет роль в формировании бюджета республики, а также налогов и сборов. Так, 9 февраля 1924 года в состав Центральноазиатского экономического Советского Союза были включены Центральноазиатский экономический совет и вновь образованные Польша и БНСР.

**Ключевые слова:** Министерство финансов, Центральноазиатский экономический совет, патентные стандарты, акцизный налог, управление торговой информацией, бюджетное управление.

## **THE FORMATION AND TRANSFORMATION OF THE BUDGETS OF THE BUKHARA AND KHOREZM PEOPLE'S SOVIET REPUBLICS**

**Iriskulov Bekzod Johongirovich**

Samarkand state Pedagogical Institute, Lecturer

### **Abstract**

This article examines the formation of the budgets of the Bukhara and Khorezm People's Soviet Republics based on historical sources. It presents information on the role of taxes in budget formation, their types, and customs duties. Furthermore, it highlights the development of a unified state budget plan by the Central Asian Economic Council and the introduction of the Excise Regulation in the Bukhara People's Soviet Republic on February 9, 1924.

**Keywords:** Ministry of Finance, Central Asian Economic Council, patent fee rates, excise tax, trade certificates, budget revenues.

Buxoro va Xorazm Xalq Sovet Respublikalari 1920-yilda tashkil etilib, ular Sovet Rossiyasi tarkibidagi mustaqil respublikalar sifatida nazorat ostida faoliyat ko'rsatgan. Bu respublikalarning iqtisodiy siyosati, xususan, budjet shakllanishi va undagi o'zgarishlar,

boshqaruvning markazlashgan sotsialistik tizimiga kirish jarayonida muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Ikkala milliy respublika o'zining mustaqilligini e'lon qilganidan keyin, ularning budjeti asosan ichki soliqlar hamda qisman Sovet Rossiyasidan kelgan moliyaviy yordam hisobiga shakllangan.

1920-yil oktabr, noyabr va dekabr oylarida Turkiston Respublikasi Moliya xalq komissarligi Buxoro Respublikasidagi doimiy vakili V.V. Kuybishev orqali 1 milliard rubl ajratish bo'yicha topshiriq bergan [1].

BXSR va XXSR hukumatlari tomonidan davlat budjeti daromadlari tizimini yaratish, eski soliq tizimini tugatish, ichki imkoniyatlarni safarbar qilish va ulardan davlat tuzilmalarini moliyalashtirishda foydalanish bo'yicha bir qancha chora-tadbirlar amalga oshirilgan.

Davlat moliyasini shakllantirish dolzarb ahamiyat kasb etganligi bois, Butunrossiya Markaziy Ijroiya Qo'mitasining Turkiston bo'yicha komissiyasi tashkiliy-texnik jihatdan yordam ko'rsatish uchun Buxoro va Xivaga bir guruh moliya xodimlarini yuborgan. Masalan, professor Levin Xorazm Respublikasiga yuborilib, u XXSR moliya vaziriga amaliy yordam berishdan tashqari, 1921–1922-yillar uchun Xorazm moliyasining batafsil tavsifini ishlab chiqqan [2].

RSFSRning Buxoro Xalq Respublikasidagi maxsus vakili V.V. Kuybishevning ko'rsatmasi bilan Turkiston moliya xodimlari Buxoro amirligining pul va soliq tizimi bilan batafsil tanishib, pul muomalasini tartibga solish bo'yicha bir qator aniq takliflar ishlab chiqqan [3].

Davlat daromadlari va xarajatlari bilan tanishib chiqqan mutaxassislar ikkala respublikada ham darhol budjetni tuzish va yangi soliqlarni belgilashga kirishib bo'lmaydi, degan xulosaga kelishgan. Birinchi bosqichda soliqqa tortishning eski shakllarini, ularning sinfiy mazmunini o'zgartirgan holda saqlab qolishni nazarda tutuvchi soliqlar to'g'risida farmonlar chiqarish tavsiya etilgan. 1920-yil oktyabr oyining oxirida umumiy soliq to'g'risidagi dekret chiqarilgan. Ushbu dekret yer va boshqa soliqlarni sezilarli darajada qisqartirishni nazarda tutgan [4].

1921-yilda oziq-ovqat mahsulotlari razvyorstkasi tizimi o'rniga oziq-ovqat solig'i joriy qilingan bo'lib, bu razvyorstka tizimi hajmidan bir necha barobar kam edi. 1921-yilda BXSRda oziq-ovqat solig'i hisobiga 1 843 336 pud mahsulot (bug'doy, mayiz, paxta, teri va boshqalar) yig'ilib, ularning umumiy qiymati oltin hisobida 1 450 626 rublni tashkil etgan [5].

Oziq-ovqat solig'i bilan bir qatorda, sovet hokimiyati o'rnatilgan dastlabki yillarda Buxoro va Xorazm Xalq Sovet Respublikalari budjetiga daromad asosan turli eskicha soliqlardan kelib turgan. Xorazm Respublikasida hatto respublika tuzumi o'rnatilganidan keyin uchinchi yil oxiriga kelib ham 1917-yilgacha bo'lgan soliqlar saqlanib qolgan edi. 1922-yilda pul soliqlarining tushumi quyidagicha bo'lgan [6].

Pul daromadlari orasida o'z salmog'iga ko'ra birinchi o'rinni ilgari amir va yirik amaldorlarga tegishli bo'lgan, davlat tasarrufiga o'tkazilgan va musodara qilingan mol-mulkni sotishdan olingan daromadlar egallagan. Ikkinchi o'rinda bozorlarni ijaraga berishdan tushgan daromadlar turgan. Bozorlar bojmanlarga (ijarachilarga) ijaraga berilgan bo'lib, ular savdogarlardan yig'im undirib, davlatga ijara haqini to'laganlar va yig'ilgan mablag'ning bir qismini o'zlariga mukofot sifatida qoldirganlar. 1920-yilgacha bojmanlar ko'p firibgarliklar qilganini inobatga olib, Savdo va sanoat nozirligi suiiste'molliklarga qarshi kurashish maqsadida bu yig'im miqdorini aniq belgilab qo'ygan [7].

Buxoro zakoti (boj) chet elda ishlab chiqarilgan tovarlar qiymatining 2,5 foizi miqdorida undirilgan. Bu yig'imning 1920-yildan keyin kamayib ketganligi qo'shni mamlakatlar bilan tashqi savdo munosabatlari keskin qisqarganligidan dalolat beradi.

Chorva mollaridan olinadigan zakot pul bilan undirilgan. Xorazm Respublikasi MIQning 1922-yil 22-iyundagi qaroriga ko'ra, chorvachilik bilan shug'ullanuvchi Xorazmning barcha aholisiga chorva zakoti solig'i joriy qilingan. Zakot miqdori har bir qo'y va echkidan 100 ming so'm, ot va tuyadan 500 ming so'm, yirik shoxli qoramoldan esa 500 ming so'mgacha qilib belgilangan [8].

Buxoro Respublikasida amirlik davridagi soliqlar o'rniga 1921-yilda yangi daromad manbalari va soliqlar joriy etildi. Xususan, davlat mulkini ijaraga berishdan olinadigan daromadlar, tovarlar qiymatining 2,5 foizi miqdoridagi bojxona boji, savdo va sanoat korxonalaridan olinadigan soliq kiritildi [9].

Buxoro Xalq Sovet Respublikasida oltin hisobidagi qog'oz pullar chiqarilishi 1920-yilda 524,5 ming rublni, 1921-yilda 2 136,7 ming rublni, 1922-yilda esa 11 920,3 ming rublni tashkil etgan. "Respublika mavjud bo'lgan uch yil mobaynida, — deyiladi Sovetlarning VI s'ezdiga taqdim etilgan BXSR budjeti haqidagi tezislarda, — davlat xarajatlarining 70 foizdan ko'prog'i chiqarilgan emissiya hisobiga qoplangan bo'lib, uning miqdori oltin hisobida 4–5 million rublgacha yetgan". Xorazm Respublikasida 1922-yilda daromadlar (oziq-ovqat solig'i bilan birga) xarajatlarning atigi 38,3 foizini qoplagan, qolgan qismi esa emissiya hisobidan ta'minlangan [10].

Pul chiqarish ko'payib, respublikaning haqiqiy ehtiyojlaridan oshib ketgan. Buxoro va Xorazm hukumatlari a'zolaridan ba'zilar emissiyaning bir qismini shaxsiy boylik orttirish maqsadida ishlatganlar. Emissiya hisobiga ortiqcha valyuta jamg'armasi yaratilgan, uning miqdorini cheklash esa emissiya hajmini sezilarli darajada qisqartirishi mumkin edi. Shunday qilib, 1920–1922-yillarda Buxoro va Xorazm Sovet Xalq Respublikalarida asosiy davlat daromad manbalari oziq-ovqat solig'i va qog'oz pullar chiqarish bo'lgan.

BXSR va XXSR o'z davlat budjetlariga ega bo'lib, ularni umumfederal budjetga kiritish "to'liq" tarzda amalga oshirilgan. Respublikalar mahalliy budjetlarga ham ega edi. Bu respublikalarda RSFSRdagi kabi soliq siyosati yuritilib, RSFSRda qo'llanilgan barcha soliqlar joriy etilgan, biroq barcha mahalliy maishiy, madaniy va iqtisodiy xususiyatlar hisobga olingan.

BXSR va XXSR o'z moliyaviy boshqaruv apparatiga ega bo'lib, RSFSR budjeti bilan faoliyatni muvofiqlashtirish ushbu respublikalar hukumati huzuridagi Moliya xalq komissarligi vakillari orqali amalga oshirilgan.

Ma'lumki, 1923-yil aprel oyigacha uchta respublikada turli pul birliklari muomalada bo'lgan. O'sha yilda pul muomalasi masalasida konferensiya tashkil etilib, ushbu pul birliklarini umumfederal belgilarga almashtirish yo'li bilan bixillashtirish to'g'risida kelishuvga erishilgan. Bularning barchasi O'rta Osiyo iqtisodiy kengashi faoliyatida moliya masalalari katta o'rin egallaganidan dalolat beradi.

O'rta Osiyo Iqtisodiy Kengashi SSSR Moliya xalq komissarligining O'rta Osiyo bo'yicha vakili bilan hamkorlikda Turkiston Respublikasining budjet qurilishi tajribasidan foydalanib, Xorazm va Buxoro Xalq Respublikalariga davlat va mahalliy budjetlarni tuzish va mustahkamlashda, shuningdek, ularning tuzilishini Turkiston Respublikasi budjeti bilan uyg'unlashtirishda yordamlashgan.

BXSRning birinchi budjeti 1922–1923-yilning iyun–iyul oylari uchun tuzilgan. Bu budjetning daromadlari 53,6 mln tanga, xarajatlari 144,0 mln tanga, taqchilligi esa 90,4 mln tanga (62,8 foiz) bo'lgan [11].

Respublikaning ikkinchi budjeti 1923–1924-yilga, eski budjet yilidan (iyul–iyun) yangi budjet yiliga (oktyabr–sentyabr) o'tishni hisobga olgan holda 15 oyga tuzilgan. Budjet hajmi (oltin hisobida, ming rublda) dastlab quyidagicha bo'lgan [12].

Ikkinchi budjet birinчисiga nisbatan bir qator afzalliklarga ega edi. U BXSRning puxta o'ylangan xo'jalik rejasi asosida tuzilgan. Oddiy xarajatlar bilan bir qatorda favqulodda xarajatlar ham hisobga olinib, davlat budjeti tarkibidan mahalliy budjetlar ajratilgan. Budjet davlat apparatini qayta tashkil etish va soddalashtirishni hisobga olgan holda tuzilgan. Uni tuzishda daromadlar va xarajatlarning yanada takomillashgan tasnifidan foydalanilgan.

Birinchi budjet 9 oyda daromadlar bo'yicha 2,6 foizga, xarajatlar bo'yicha 40 foizga bajarilgan bo'lsa, ikkinchi budjet faqat birinchi yarim yillikda daromadlar bo'yicha 46 foizga, xarajatlar bo'yicha 40,3 foizga bajarilgan [13]. Biroq mahalliy budjetlarni bajarishda jiddiy kamchiliklarga yo'l qo'yilgan. Budjet qurilishining, xususan, budjetni rejalashtirishning muvaffaqiyatlari davlat xarajatlarini rejalashtirish va moliyalashtirishni bosqichma-bosqich

yaxshilashga yordam bergan. BXSРning 1922/23–1924/25-yillarga mo‘ljallangan budjet loyihalari shundan dalolat beradi.

BXSРning birinchi budjeti o‘ziga xos xarajatlar tarkibiga ega edi: bu budjetning taxminan 50 foizini Davlat bankining asosiy kapitalini va Iqtisodiyot bo‘limi uchun aylanma mablag‘larni shakllantirish xarajatlari tashkil etgan. Bu bo‘lim nafaqat savdo-tayyorlov operatsiyalari bilan, balki respublika valyuta fondini shakllantirish maqsadida qimmatbaho buyumlarni sotib olish bilan ham shug‘ullangan.

1922–1923 va 1923–1924-yillar budjetlarida boshqaruv xarajatlari 60 foizga yetgan bo‘lsa, 1924–1925-yillar budjetida ularning ulushi 40 foizgacha kamaygan. Boshqaruv xarajatlarini qisqartirish va mudofaa xarajatlarini Ittifoq budjetiga o‘tkazish hisobiga xalq xo‘jaligini tiklash va ijtimoiy-madaniy tadbirlar xarajatlari muntazam oshib borgan.

XXSR birinchi budjetining daromadlari 1923–1924-yilda 1 129,2 ming rublni, xarajatlari esa 1 312,3 ming rublni tashkil etgan. 1923-yilning oktabrida Xorazmni sotsialistik respublika deb e‘lon qilgan Xorazm VI qurultoyi 1 403,3 ming rubllik qo‘shimcha smeta tuzish va tasdiqlash zarur deb qaror qabul qilgan [14].

Harbiy xarajatlarning Ittifoq budjetiga o‘tkazilishi va qo‘shimcha smeta hisobga olinishi munosabati bilan Xorazm Respublikasining birinchi budjeti yakuniy summasi xarajatlar bo‘yicha 1 644,2 ming rubl, daromadlar bo‘yicha 1 194,3 ming rublni tashkil etib, kamomadi esa 450 ming rubl bo‘lgan. XXSRning 1924–1925-yillar uchun tuzilgan ikkinchi budjeti 1 200,9 ming rublni tashkil etgan [15]. Budjet hajmining qisqarishi mahalliy budjetlarning ajratilishi bilan bog‘liq edi.

Uch respublika budjetlarini taqqoslash daromadlar va xarajatlar tarkibi bir-biriga yaqinlashib, bir turdagi budjetlarga aylanganini ko‘rsatadi. Buni Turkiston ASSR, BXSР va XXSR budjetlarining 1924–1925-yillarga mo‘ljallangan xarajatlar qismining tarkibi (foizda) ham tasdiqlaydi [16].

**Xulosa qilib aytganda**, Buxoro va Xorazm Xalq Sovet Respublikalarining budjetlari o‘z davrida sotsialistik o‘zgarishlar va islohotlarni amalga oshirish hamda iqtisodiy rivojlanishni ta‘minlashga qaratilgan edi. Moliya, soliq, ijtimoiy sektorga sarflanadigan mablag‘lar va ichki xo‘jalikni rivojlantirish yo‘nalishlari bu respublikalarning iqtisodiy asosi bo‘lgan. Shuningdek, bu respublikalarning budjet siyosati Sovet Rossiyasi bilan yaqin aloqa va moliyaviy yordamlar orqali shakllanganligi, ayni paytda ularning mustaqil faoliyat ko‘rsatish imkoniyatlarini cheklab qo‘ygan.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. O‘zbekiston Milliy arxivi (O‘z MA). R-25-fond, 1-ro‘yxat, 324-yig‘ma jild, 480-varaq.
2. O‘zbekiston Milliy arxivi (O‘z MA). R-20-fond, 1-ro‘yxat, 564-yig‘ma jild, 2-varaq.
3. O‘zbekiston Milliy arxivi (O‘z MA). R-37-fond, 1-ro‘yxat, 233-yig‘ma jild, 8-varaq.
4. O‘zbekiston Milliy arxivi (O‘z MA). R-48-fond, 1-ro‘yxat, 76-yig‘ma jild, 29-varaq.
5. O‘zbekiston Milliy arxivi (O‘z MA). R-50-fond, 1-ro‘yxat, 13-yig‘ma jild, 17-varaq.
6. O‘zbekiston Milliy arxivi (O‘z MA). R-73-fond, 1-ro‘yxat, 20-yig‘ma jild, 81–89-varaqlar.
7. O‘zbekiston Milliy arxivi (O‘z MA). R-20-fond, 1-ro‘yxat, 564-yig‘ma jild, 23-varaq.
8. O‘zbekiston Milliy arxivi (O‘z MA). R-20-fond, 1-ro‘yxat, 564-yig‘ma jild, 31-varaq.
9. O‘zbekiston Milliy arxivi (O‘z MA). R-48-fond, 1-ro‘yxat, 44-yig‘ma jild, 126-varaq.
10. O‘zbekiston Milliy arxivi (O‘z MA). R-20-fond, 1-ro‘yxat, 564-yig‘ma jild, 19-varaq.
11. Buxoro hayoti jurnali.– 1924. – № 1–2. – B. 20.
12. O‘zbekiston Milliy arxivi (O‘z MA). R-58-fond, 1-ro‘yxat, 354-yig‘ma jild, 293–294-varaqlar.
13. O‘zbekiston Milliy arxivi (O‘z MA). R-58-fond, 1-ro‘yxat, 354-yig‘ma jild, 382a-varaq.
14. O‘zbekiston Milliy arxivi (O‘z MA). R-73-fond, 1-ro‘yxat, 20-yig‘ma jild, 99-varaq.
15. O‘zbekiston Milliy arxivi (O‘z MA). R-69-fond, 1-ro‘yxat, 61-yig‘ma jild, 3-varaq.
16. O‘zbekiston Milliy arxivi (O‘z MA). R-69-fond, 1-ro‘yxat, 61-yig‘ma jild, 6-varaq.